



## RUSTAMOV JO'RABEK


SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI  
41-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAK TABI  
TARIX FANI O'QITUVCHISI



# O'QITUVCHI

ILMIY, USLUBIY, METODIK VA BADIY

## JURNALI



**ILMIY MAQOLALAR**

**DARS ISHLANMALAR**

**USTOZLAR IJODIDAN**

**METODIK TAVSIYALAR**



OPEN  ACCESS

FARG'ONA VILOYATI, FARG'ONA SHAHRI  
ISTE'DOD KO'CHASI 1-UY, 1-XONADON



+99891-152-93-14



[WWW.ACADEMIA SCIENCE.ORG](http://WWW.ACADEMIASCIENCE.ORG)

**MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЬЕ**

1.	Madaminova Zumradxon Hakimjon qizi O‘ZBEK LUG’ATCHILIGINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI	6
2.	Mamirova Umida Xoljigitovna ZAMONAVIY MAKTAB O‘QITUVCHISI SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	9
3.	Fozilova Yulduz Qarshiboyena MUHAMMAD YUSUF HAYOTI VA IJODI	12
4.	Abdusalomova Yulduzxon Abdijahhorovna BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRIKRLASHGA O‘RGATISHDA MODULLI TA’LIMMING MOHIYATI	15
5.	Umarova Munojatxon Ibragimovna ADABIYOT FANINI O‘QITISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	18
6.	Aliyeva Nigoraxon GLOBALIZM DAVRIDA ADABIYOT TAQDIRI	20
7.	Toymuhamedova Dilobar BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQ MA‘DANIYATNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	24
8.	Baratov Asatillo Khabibullavich SCHOOL SUBJECTS	27
9.	Sayidova Gulnozakhon Rustamovna THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT LEARNING AT SECONDARY SCHOOLS	31
10.	Ko`bayeva Nasiba Qo`yiliyevna O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O`RNI	34
11.	Mahliyoxon Bobojonova ANVAR OBIDJON IJODIDA AN’ANA VA INDIVIDUALLIK	37
12.	Musayeva Nodira Nizomovna, Shamsiyeva Maxbuba Sattorovna OILADA BOLANI TANQIDIY FIKRLASHI RIVOJLANTRISH	41
13.	Qo‘ziboyeva Mahliyo, Mavlyanova Sayyora MAXTUMQULI LIRIKASIDA HIJRON OHANGLARI	46
14.	Xushvaktova Nilufar Asamovna MUHAMMAD YUSUF ADABIY MEROSIDA MILLIY TUYG‘ULAR IFODASI	49
15.	Yuldasheva Gulbahor Davletbayevna ONA TILI FANINI O‘QITISH DIDAKTIKASI VA UMUMIY ASOSLARI	53
16.	Tursunova Zebo Elmuhamadovna ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI	57
17.	Ramazonova Lobar Ilyosovna O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI MUOMALA MUNOSABATLARI	61
18.	Jumaniyozova Xurshida Ozodboyevna, Kenjabayeva Fotima Saparbayevna SAIDA ZUNNUNOVA SHE’RLARINING FONOPOETIK TAHLILI	63
19.	Samandarovna Maqsuda ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O‘QILGAN ASARLAR YUZASIDAN BAHS MUNOZARALI DARSLAR TASHKIL QILISH	66
20.	Xudayqulova Fazilat Bo‘riyevna TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISH	69
21.	Qodirova Shohsanam USTOZIM MENI YERDAN KO’KLARGA KO’TARDI	72
22.	Berdimuradova Dilnoza, Xolbutayeva Firuza YUKLAMA HAQIDA BIR SO‘Z	74
23.	Umbetova Gulayim MODERN YOUTH SLANG: ITS SOURCES AND VARIETIES	77
24.	III. Салиева	80



## OILADA BOLANI TANQIDIY FIKRLASHI RIVOJLANTIRISH

*Musayeva Nodira Nizomovna  
Buxoro davlat universiteti dotsenti*

*Shamsiyeva Maxbuba Sattorovna  
Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada demokratik jamiyatda bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlanirish, avvalambor, oilada, ularning ota-onalari bilan o‘zaro munosabati tufayli rivojlanib borishi asoslandi.

**Kalit so’zlar:** Fikr, tanqidiy fikrlash, oila, ijodiy fikrlash, muloqot kommunikatsiya, kollaboratsiya.

**Аннотация:** В статье обоснованы, что в условиях демократичного общества развитие мыслительных способностей детей вырабатывается прежде всего в семье, благодаря взаимодействие их с родителями.

**Ключевые слова:** Мысль, критическое мышление, семья, творческое мышление, общение, коммуникация, коллаборация.

**Annotation:** The article substantiates that in a democratic society, the development of the mental abilities of children is developed primarily in the family, thanks to their interaction with their parents.

**Keywords:** Thought, critical thinking, family, creative thinking, communication, communication, collaboration.

Demokratik jamiyatda har bir fuqaro o‘z oldida turgan muammolarni oqilona echish qobiliyatini egallagan bo‘lishi kerak. Buning uchun albatta unda fikrlash qobiliyati rivojlangan bo‘lishi lozim. Bunday qobiliyat esa avvalombor oilada ota-onalarning bola bilan muloqot qilishi orqali rivojlanadi.

“Fikrlash” biror muammo haqida muayyan bir xulosaga kelish maqsadida mulohaza yuritmoq yoki o‘ylamoqdan iborat bo‘lgan psixologik jarayondir. Eramizdan 400-300-yil oldin yashagan fikrlash asoschilari Suqrot, Pluton va Aristotellardan quyidagi – analiz, mulohaza yuritish va tanqiddan iborat analitik fikrlash sistemasi qolgan. Shuningdek, Suqroti hakimdan tanqidiy fikrlash ham meros qolgan. U o‘z mulohazalarida nima noto‘g‘riligini ko‘rsatishga uringan. “Agar sho‘rvaning ko‘pigi olib tashlansa u toza bo‘ladi” qabilida ish tutgan. Boshqacha aytganda barcha noto‘g‘rilar olib tashlansa to‘g‘ri, ya’ni haqiqat qoladi deb hisoblagan. Lekin ko‘pik bilan birga yana allaqancha “mahsulotlar” tashlanayotganligiga e’tibor bermagan. Suqrot yangi g‘oyani taklif qilishdan ko‘ra nima “yomonligini” ko‘rsatishni muhim deb bilgan.

Tanqid (kritika (lot)-hukm qilish mahorati) – inson faoliyatining biror sohasiga aloqador hodisani baholash, analiz qilish. U xatolarni topish va muhokama qilishdan iboratdir. Tanqid-nimaningdir yoki kimningdir kamchiliklarni baholash, nima yoki kimdir haqida salbiy fikr yuritishdir. O‘zgalarni tanqid qilish qaralayotgan muammoga ularning munosabatini o‘ziniki bilan mos kelishini istashdir. Bu esa odatda manmanlikka olib keladi. Boshqalar ham shu ruhda tarbiyalanganliklari uchun tanqidchining fikrlarini qabul qilishni istashmaydi. Demak, tanqid o‘zgalarning axborot-energetik olamiga tajovuzdir. Ta’lim konsaltingi bo‘yicha xalqaro ekspert Liliya Muxametshina yaqinda Toshkentdagı Leader School tomonidan tashkil etilgan veb-seminarda oiladagi farzandlarning tanqidiy fikrlashini qanday rivojlantirish mumkinligi haqida gapirdi. Dunyo doimo o‘zgarib turadi, yurist, buxgalter va boshqa zamonaviy kasblar o‘nlab yillardan keyin “aqlii” qurilmalar va xizmatlar bilan almashtiriladi. Bu dunyoda qanday ko‘nikmalarga talab bo‘ladi, ota-onalar o‘z bolalari bilan muloqotda bo‘lib va bo‘s sh vaqtlarini qiziqarli tashkil qilish orqali ularda ushbu ko‘nikmalarni qanday shakllantirishi mumkin? Liliya Muxametshinaning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratsak, “agar bola savollar bermasa, tanqidiy fikrlash haqida unutsa bo‘ladi. Savollarning sifati haqida keyinroq gaplashamiz. Keling, avvalo bola oxirgi marta bizga qachon savol bergenini eslaylik”.

Biz bilamizki, maktabgacha yoshdagi bolalar savol berishni yaxshi ko‘rishadi. Bu qiziqishdan dalolat beradi, bora-bora u aqlning qiziquvchanligiga, keyinchalik o‘z navbatida tanqidiy fikrlashga aylanadi. Ko‘p hollarda maktab hayoti boshlanishi bilanoq, savollar berilishi to‘xtaydi. Faqat javoblar yangraydi. Ammo bu holatda bolalar faqat yangi bilimlarning iste’molchisiga aylanishadi, ammo ular bilimlarning yaratuvchisiga aylanishi kerak. Buning uchun ota-onalar bolalariga savollar bilan murojaat qilib turishlari lozim. Bu ishni qilish juda muhim, chunki bolalar avvalo oilada, ota-onadan yoki aka-uka va opa-singillardan, va faqat keyin mакtabda savol berishni o‘rganadilar. Bolalar ota-onaning o‘zi qanday savol berayotganini, ularda aqlning qiziquvchanlik qobiliyatini ko‘rmasalar, ota-onalarning o‘zi bolalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi mushkul bo‘ladi. Bu esa hozirgi kunda uchraydigan muammalardan biri hisoblanadi. Demak ota-ona tomonidan bolaga savol bermaslik ham bir muammo ekan.

Bizga ijodiy fikrlash qiziqarli narsalarni yaratish, san’at, ijoddek tuyuladi. Aslida esa har bir inson, bola ijodiy fikrlashni rivojlantirishi kerak, chunki bu bog‘liqlik mavjud bo‘lmagan joylarda uni topishning qimmatli qobiliyatidir. Shuningdek, bu ko‘nikma bir vaziyat uchun ko‘plab javob variantlarini o‘ylab topish qobiliyatini va qayta o‘rganish, ishongan narsangizdan voz kechish va yangi narsalarni topish, o‘rganish qobiliyatini shakllantiradi.

Bilimning shunchaki o‘zi hech kimga kerak emas, chunki ham bilim, ham ko‘nikmaga ega bo‘lgan odamlar bor va kelajakda bolalarimiz aynan shunday odamlar bilan raqobatlashadilar. Ham bilim berilishini, ham ko‘nikma va qadriyatlarni rivojlantirishni ta’minlash muhimdir. Bolalar taqlid qilishni yoqtirishadi, shuning uchun ham ular kattalardan doimo o‘rnak olib o‘rganishadi. Bola kelajagining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun u qanday qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak? Biz ko‘p javob olamiz: “tanqidiy fikrlash”, “muloqotga kirishuvchanlik”, “moslashuvchanlik”, “qiziquvchanlik”, “mas’uliyatlilik”, “stressga chidamlilik” va boshqalar.

Ushbu barcha ko‘nikmalarni “To‘rt „K“” orqali aniqlash mumkin: **kommunikatsiya, kollaboratsiya (hamkorlik), tanqidiy fikrlash (kriticheskoye mishlenie), ijodiy fikrlash (kreativnoye mishleniye)**- har kuni ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlansa, yaxshi bo‘lar edi.

Quyidagi usullar ularni rivojlantirishga yordam beradi:

- Oddiy plastik shishani tavsiflovchi uch xil so‘z iborani aytинг. Aniq so‘zlarni ishlatmang: *suv, shisha idish, yozuv, plastmassa, ko‘k, oq;*
- Har safar topshiriq berganingizda, darhol hamma biladigan, ijodiy bo‘lmagan so‘zlar va nomlarni chiqarib tashlang. Bola boshqalar ko‘rgan va boshqalar ko‘rmaydigan narsalarni ko‘rishni o‘rganishi kerak;
- “Nima sovg‘a qilamiz?”, “Qanday tabriklaymiz?”, “Qayerga boramiz?”, “Matematikadan bahoni qanday tuzatamiz?”, “Qaysi kitobni o‘qiymiz?” (“Kuloyim”, “Alisa mo‘jizalar mamlakatida”ni aytma, uni bir necha bor o‘qiganmiz”);
- “Plastik idishdan buyum yasash kerak (vaza, qalam qutisi, raketa dema, o‘tgan gal yasaganmiz)” ;
- “Kun qanday o‘tdi?” (*Yaxshi, yomon, o‘rtacha, dahshatli, odatiy degan javoblarni chiqarib tashlang*).

Ota-onalar uchun bolaning ko‘p do‘satlari bor-yo‘qligini, ular bilan qanchalik tez-tez uchrashib turishini, ular bilan yurishini, tinglashni bilishini, muzokara olib borishini, tashabbus ko‘rsatishini, murosaga kelishga tayyorligini kuzatish muhimdir. Buni turli misollarda ko‘rshimiz mumkin. Bolalar ko‘pincha ota-onalari yoki boshqa bolalar bilan kelishmaydi. Bunday vaziyatda ota-onalar bolaga savol berishlari kerak: “Nima uchun rozi emassiz?”. Agar bola o‘z pozitsiyasini oqlay olsa, u o‘zi o‘ziga savol beradi: “Nega men shunday deb o‘ylayman?”. Bu esa tanqidiy fikrlashning yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Agar bola nima uchun u yoki bu xulosaga kelganini tushunmasa va o‘z ishini qanday isbotlashni bilmasa, ota-onalar unga yordam berishlari kerak.

Aynan eng yaqin odamlar bola bilan turli mavzularda tanqidiy fikrlashni o‘rganadigan tarzda muloqot qila oladilar. Demak har bir ota-ona farzandini bergen savollariga shunchaki, oddiy javob bermasligi lozim balki to’liq, kehgroq, qiziqarli

## **“O‘QITUVCHI” ilmiy, uslubiy, metodik va badiiy jurnalni**

tarzda javob berib, keyin bola nimani tushunganini aniqlash uchun huddi shu savolni boshqa usulda berib uning qanday fikr yuritishini aniqlab olish kerak. Bola fikrlashda qiynalsa unga biroz yordam berish maqsadga muvofiq bo’ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M."Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar.
2. Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н.. Педагогик технологиялар. Т.:“Fan va texnologiyalar” нашриёти. 2008 г, С.164.
- 3.Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н., Мусаев С.С.. Педагогическая технология-основа концепции полного обучения. Вестник Учебно-методического объединения по профессионально-педагогическому . 2006 г.
- 4.Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Современная таксономия учебных целей для систем среднего и высшего профессионального образования. Вестник Учебно-методического объединения по профессионально-педагогическому. 2011.
5. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Yangi asr avlod. 2003.
6. Avliyakulov N. X., Musayeva N.N.. Pedagogical technology. Publishing house “Tafakkur bo’stoni”, Tashkent, 2012 г, С. 29-36.
- 7.Мусаева Н.Н., Авлиякулов Н.Х., Авлиякулов Н.Н.. Всеобщее среднеспециальное профессиональное образование как мотивирующий фактор самообразования и профессиональной мобильности в Республике Узбекистан. Социально-профессиональная мобильность в XXI веке, С. 36-38.
- 8.Мусаева Н.Н.. Неразрывность обучения–востребованный принцип организации эффективного функционирования системы непрерывного профессионального образования. Современное образование журнал, 2017 г, С. 3-8.
- 9.Мусаева Н.Н.. Неразрывность обучения–один из важнейших факторов эффективности повышения подготовки высококвалифицированных специалистов. 2008 г, С. 62.
- 10.Мусаева Н.Н.. Развитие теоретических положений таксономии учебных целей. Педагогик маҳорат журнал. 2021 г., С. 76.
- 11.Мусаева Н.Н.. Роль педагогических технологий в развитии современного образования. Academic research in educational sciences 2 (NUU Conference 1), 2021 г, С. 241-243.

- 12.Мусаева Н.Н., Авлиякулов Н.Х.. Таксономия учебных целей для современного учебного процесса системы среднего специального и высшего профессионального образования. Проблемы современного образования, 2017 г, С. 76-81.
- 13.Farberman B.L. Progressinie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999. 165-bet.
- 14.Halpern D. Tanqidiy fikrlash psixologiyasi. - SPb.: "Piter" nashriyot uyi, 2000 yil.